Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.111

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

INGLIZ VA O‘ZBEK XALQ XAJVIY ERTAKLARI TADQIQINING NAZARIY ASOSLARI: ERTAK DISKURSI VA TASNIF MUAMMOSI

Madina Kozimjon qizi Ahmadaliyeva*

Farg’ona davlat universiteti

✉ madinaahmadaliyeva823@gmail.com

ANNOTATSIYA

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek xalq xajviy ertaklarini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari yoritiladi. Ertak tushunchasining o‘zbek (Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy) va xorijiy (folk tale, fairy tale, Märchen) ilmiy an’analaridagi talqini, ertak diskursining konstitutiv belgilari (epiklik, bayoniylik, xayoliylikka yo‘naltirilganlik, mo‘jiza, aksiologiklik, xiralashgan xronotop, iterativlik) hamda xajviy ertaklarning mustaqil tur sifatida ajratilishi masalasi tahlil qilinadi. Shuningdek, jahon (V.Ya.Propp, Aarne–Thompson–Uther indeksi) va o‘zbek (M.Afzalov, K.Imomov) folkloristikasidagi ertak tasnifi tizimlari qiyoslanadi. Tadqiqot natijasida rus va o‘zbek folkloristikasida xajviy ertakning aynan lingvodiskursiv va lingvopragmatik xususiyatlari alohida tizimli tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmaganligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar

Kalit so‘zlar: xajviy ertak, ertak diskursi, ertaklik kategoriyasi, tasnif muammosi, komiklik nazariyasi, Aarne–Thompson–Uther indeksi, lingvopragmatika, folklorshunoslik.

DOI: 10.5281/zenodo.23278067

Kirish

Globallashuv sharoitida milliy ma’naviy merosni, xususan xalq og‘zaki ijodi namunalarini ilmiy asosda o‘rganish va boshqa xalqlar folklori bilan qiyosiy tahlil qilish folklorshunoslik va chog‘ishtirma tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ertak — xalqning ko‘p asrlik tafakkur tarzi, axloqiy mezonlari va estetik idealini o‘zida mujassam etgan eng ommaviy folklor janrlaridan biri bo‘lib, uni geneologik qardosh bo‘lmagan tillar — xususan ingliz va o‘zbek tillari — misolida chog‘ishtirma tahlil qilish masalasi hozirgacha yetarli darajada o‘rganilmagan. Xususan, ikkala xalq og‘zaki ijodida alohida mazmuniy-uslubiy qatlamni tashkil etuvchi xajviy (yumoristik-satirik) ertaklarning lingvodiskursiv tabiati va tasnifiy maqomi masalasi alohida ilmiy tadqiqotga muhtoj.

Mazkur maqolaning maqsadi — ertak janrining folklorshunoslikdagi tadqiq tarixini, ertak diskursining konstitutiv belgilarini hamda xajviy ertaklarning jahon va o‘zbek folkloristikasidagi tasnif tizimlaridagi o‘rnini tahlil qilish orqali ingliz va o‘zbek xalq xajviy ertaklarini qiyosiy-tipologik o‘rganishning nazariy-metodologik zaminini yoritishdan iborat.

1. Ertak tushunchasining milliy va xorijiy ilmiy an’analardagi talqini

Ertak janrining tilshunoslikka kirib kelishidagi ilk tajribalardan biri sifatida Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarini ko‘rsatish mumkin: turkiy so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini izohlash jarayonida olim qo‘shiq, maqol, afsona kabi og‘zaki ijod namunalari qatori ertak atamasini ham izohlab, uni “hikoya”,

ya’ni “biror maqsadni shohga bildirish” ma’nosida talqin etgan. M.Afzalovning ta’kidlashicha, Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida “Ko‘r bilan shol” ertagini keltirgan bo‘lib, bu — do‘stlik tufayli halokatdan qutulish haqidagi ertak namunasi hisoblanadi. Alisher Navoiy asarlarida esa cho‘pchak, cho‘rchak atamalari afsona, ertak, masal ma’nolarida qo‘llanilgan.

Xorijiy folklorshunoslikda, o‘zbek ilmiy an’anasidagi “ertak” tushunchasiga to‘liq mos keladigan yagona termin mavjud emas: “folk tale”, “fairy tale”, “Märchen” kabi atamalar turlicha — goh keng, goh tor ma’noda qo‘llaniladi. “Folk tale” tushunchasi doirasiga afsonalar, masallar, hajviy latifalar hamda arvohlar yoki avliyolar haqidagi rivoyatlar ham kiritilsa, “fairy tale” yoki “Märchen” atamalari ostida faqat sehrli, ya’ni to‘liq uydirma voqealarga asoslangan asarlar tushuniladi. So‘nggi yillarda xorijiy folklor lug‘atlarida “folk tale” hajmining torayib borayotgani, xususan real voqealarga asoslangan rivoyatlarning mustaqil janr sifatida ajratilayotgani kuzatiladi — bu esa janr chegarasini belgilashda asosiy mezon sifatida asarning funksional vazifasini, ya’ni ko‘ngilochar va uydirmaga yo‘naltirilganlik xususiyatini ilgari suradi.

2. Ertak diskursining konstitutiv belgilari va “ertaklik” kategoriyasi

B.Malinovskiyning kuzatishlaricha, ertak diskursining ahamiyati uning lisoniy amaliyotning boshqa sohalari bilan aloqasida, shuningdek, avlodlar tomonidan jam qilingan bilim va dunyoqarashning ertak orqali uzatilishida namoyon bo‘ladi; olim ertak syujetlarining o‘z ahamiyatini yo‘qotib borgan mifologik hikoyalarga borib taqalishini ham ta’kidlaydi. Tadqiqot ko‘rsatishicha, ertak diskursi quyidagi konstitutiv belgilar orqali boshqa folklor janrlaridan (afsona, poema) farqlanadi: epiklik, bayoniylik, xayoliylikka yo‘naltirilganlik, mo‘jiza, estetiklik, ko‘ngilocharlik va didaktiklik. Ulardan xayoliylikka yo‘naltirilganlik ayni ertak janrining o‘ziga xos, boshqa janrlarda uchramaydigan ajralmas belgisi sanaladi.

Lingvopragmatik nuqtayi nazardan “ertaklik” kategoriyasi to‘rt asosiy komponent orqali tavsiflanadi: birinchidan, mo‘jiza — ertak diskursining shubha ostiga olinmaydigan markaziy semantik yadrosi; ikkinchidan, aksiologiklik — yaxshilik-yomonlik, adolat-zulm kabi qarama-qarshiliklar orqali axloqiy mezonlarni shakllantiruvchi qadriyatlar tizimi; uchinchidan, V.Ya.Propp ta’kidlagan “real bo‘lmagan vaqt va makon”, ya’ni xiralashgan xronotop (o‘zbekcha “bir bor ekan, bir yo‘q ekan”, inglizcha once upon a time singari turg‘un birikmalar orqali ifodalanadi); to‘rtinchidan, strukturaviy-semantik iterativlik, ya’ni kumulyatsiya va takrorlar orqali matnning ritmik-semantik yaxlitligini ta’minlash.

3. Xajviy ertaklarning mustaqil tur sifatida ajratilishi va komiklik nazariyasi

Ertak diskursining asosiy (yadro) turi to‘rtta yo‘nalish asosida quriladi: 1) hayvonlar haqidagi ertaklar; 2) kumulyativ (zanjirli) ertaklar; 3) sehrli ertaklar; 4) maishiy ertaklar. V.Ya.Propp kumulyativ ertaklarni formulaviy va epik kumulyativ turlarga ajratib, ularning mazmuniy tasnifi ushbu ertak turining funksional mohiyatini ochishda zarur ekanini ta’kidlaydi. Xajviy ertaklar aynan mana shu tizim ichida, birinchi navbatda maishiy va kumulyativ ertaklar zaminida, ijtimoiy illatlarni — nodonlik, ochko‘zlik, manmanlik, riyokorlikni — kulgi ob’ektiga aylantiruvchi mazmuniy-funksional kesim sifatida namoyon bo‘ladi.

Komiklikning lingvistik tavsifi masalasida V.Ya.Propp va Yu.Borev asarlarida uning to‘rt asosiy shakli ajratiladi: yumor, ironiya, sarkazm va satira. Aristotel komik hodisani xunuklikning bir ko‘rinishi sifatida talqin qilib, kulguni yovuzlikni masxara qilish orqali yuzaga keladigan quvonch deb hisoblagan; bu qarash xalq xajviy ertaklariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keladi, chunki ularda kulgi ko‘pincha ijtimoiy adolatsizlik, nodonlik va ochko‘zlikni fosh etishga xizmat qiladi. M.M.Baxtin tavsiflagan xalq kulgi madaniyati nazariyasi nuqtayi nazaridan xajviy ertaklardagi kulgi rasmiy mafkura va ijtimoiy ierarxiyaga qarshi turuvchi estetik-ijtimoiy vosita sifatida talqin etiladi: kambag‘al, ammo topqir qahramonning boy yoki hukmdor ustidan ma’naviy g‘alabasi ana shu funksiyaning badiiy ifodasidir.

4. Xajviy ertaklar tasnifi muammosi: jahon va o‘zbek folkloristikasi tajribasi

Ertak turlarini tasniflashda jahon folkloristikasida ikki asosiy tizim shakllangan: V.Ya.Proppning rus ertaklari materialiga asoslangan besh turli tasnifi hamda xalqaro miqyosda qo‘llaniladigan Aarne–Thompson–Uther (ATU) syujetlar indeksi. O‘zbek folkloristikasida esa ertak tasnifi masalasida yagona qarash mavjud emas: M.Afzalov ertaklarni fantastik va realistik turlarga ajratsa, K.Imomov ularni sehrli va hayotiy turlarga bo‘lib, xa-

jviy ertaklarni aynan hayotiy ertakning mustaqil sub-turi sifatida belgilaydi. Bu ikki yondashuv o‘rtasidagi farq xajviy ertakning tasnifiy maqomi — mustaqil janr yoki sub-tur ekanligi — hozirgacha o‘zbek folkloristikasida bahsli masala bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.

Xajviy ertaklarning to‘planish tarixi ham ularning nisbatan kam o‘rganilganligidan dalolat beradi: N.P.Ostroumovning 1892-yilgi “Sart xalq ertaklari” to‘plamidagi 26 ta ertakdan atigi 4 tasi, Buyuk Karimovning 1939-yilgi to‘plamidagi 21 ta ertakdan esa 18 tasi satirik xarakterga ega bo‘lgan. Bunday statistik nomutanosiblik xajviy ertakning uzoq vaqt mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ajratilmay kelinganini ko‘rsatadi. G‘.Jalolov va X.Egamovning sayyor syujetlar bo‘yicha tadqiqotlari, F.Abdullayevning “Xorazm ertaklari” to‘plami hamda H.Zaripovning transkripsiya ishlari o‘zbek xajviy ertak materialining ilmiy muomalaga kiritilishida muhim o‘rin tutgan bo‘lsa-da, ushbu materialning aynan lingvistik-diskursiv tabiati alohida tizimli tahlil obyektiga aylanmagan.

Xulosa qilib aytganda, rus va o‘zbek folkloristikasida ertak janri — uning tarixiy ildizi, morfologiyasi va syujet tipologiyasi — keng va chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da (V.Ya.Propp, E.M.Meletinskiy, V.M.Jirmunskiy, M.Afzalov, K.Imomov), xajviy ertakning aynan lingvodiskursiv va lingvopragmatik xususiyatlari, xususan uning ingliz va o‘zbek tillari misolida qiyosiy-tipologik tahlili, alohida ilmiy tadqiqot obyektiga aylanmagan. Ayni shu bo‘shliq mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi va uning navbatdagi bosqichida xajviy ertaklarning fonostilistik, leksik-stilistik va sintaktik-stilistik darajalardagi qiyosiy tahlilini taqozo etadi.

Xulosa

O‘tkazilgan nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ertak — xalqning tarixiy tajribasi va axloqiy-estetik idealini aks ettiruvchi murakkab diskursiv hodisa bo‘lib, uning “ertaklik” kategoriyasi mo‘jiza, aksiologiklik, xiralashgan xronotop va iterativlik kabi lingvopragmatik komponentlar orqali shakllanadi. Xajviy ertaklar esa ushbu umumiy tizim ichida ijtimoiy illatlarni kulgi orqali fosh etuvchi mustaqil mazmuniy-funksional kesim sifatida ajralib turadi, biroq uning tasnifiy maqomi va lingvodiskursiv tabiati hozirgacha yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu boisdan ingliz va o‘zbek xalq xajviy ertaklarini chog‘ishtirma-tipologik tahlil qilish, xususan ularning fonostilistik, leksik-stilistik va sintaktik-stilistik darajalardagi ifoda vositalarini qiyoslash, zamonaviy qiyosiy tilshunoslik va folklorshunoslik uchun dolzarb va istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Пропп В.Я. Русская сказка. – Москва: Лабиринт, 2000. – 412 с.

[2] Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – М.: Лабиринт, 2000.

[3] Мамонова Ю.В. Когнитивно-дискурсивные особенности лексики английской бытовой сказки: автореф. дисс. … канд. филол. наук. – М., 2004. – 21 с.

[4] Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Тошкент: Фан, 1964. – 120 б.

[5] Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 252 б.

[6] Эгамов Х. Совет Шарқи туркий халқлари эртакчилик анъаналари алоқалар тарихидан очерклар. – Тошкент: Фан, 1982. – 344 б.

[7] Буюк Каримий. Ўзбек халқ эртакларининг баъзи бир хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995. – №5–6. – Б. 57–62.

[8] Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит-турк. Биринчи том. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960. – Б. 98.

[9] Алишер Навоий. Хазойинул маоний. II том. – Тошкент, 1959. – Б. 327.

[10] Малиновский Б. Магия. Наука и Религия. – М.: Рефл-бук, 1998. – 108 с.

[11] Мелетинский Е.М. Герой волшебной сказки: Происхождение образа. – М.–СПб.: Академия Исследований Культуры; Традиция, 2005. – С. 7–31.

[12] Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1979. – С. 68–70.

[13] Бергсон А. Смех / пер. И. Гольденберга. – М.: Искусство, 1992. – С. 47–49.

[14] Beckson K., Ganz A. Literary Terms: A Dictionary. – N.Y., 1994. – P. 85–93.

[15] Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида “сеҳрли” рақамлар. – Тошкент, 1991.

[16] Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртак. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – Б. 20–190.

[17] Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 85–87.